

**Mukambar Oripova Mirzaarabayevna**

*Toshkent shahar Mirobod tumani 110 - IDUM O'zbek tili fani o'qituvchisu*

Hozirgi kunda ta'limgan rivojlanishida o'quvchilarning o'quv fanining o'zlashtirishlariga qaratilgan ta'lim jarayonidan kompetentsiyali ta'lim tizimiga o'tish harakati kuchaydi. Shuning uchun ham zamonaviy ta'lim metodikasida kompetentli shaxs tarbiyasi, kompetentli o'qitish muammolari ko'tarilmoqda.

Aytish joizki, shaxsga yo'naltirilgan ta'limning asosiy printsiplaridan biri o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malaka bilan birga hayotiy kompetentsiyalarni shakllantirish, ya'ni ularni egallagan bilimlaridan kundalik hayotda duch kelinadigan amaliy hamda nazariy masalalarni yechishda shuningdek, tanish yoki notanish vaziyatlarda foydalanishga tayyorlashdir.

Kompetentli shaxs deganda, ma'lum sohada kelib chiqqan muammolarni hal qilishni o'z zimmasiga olish qobiliyatiga ega bo'lgan, ma'lum vazifa qo'yish va uni hal qilishda mustaqillik ko'rsata oladigan shaxs tushuniladi.

O'quvchilarda shakllantiriladigan ona tili faniga oid kompetentsiyalar:

Nutqiylar (tinglab tushunish, o'qish, so'zlash, yozish):

tinglangan matn, ko'rilgan lavhadagi asosiy axborot, voqeа-hodisalarini tushuna oladi; so'z, ibora va atama (termin)larning ma'nosini tushunib to'g'ri o'qiy oladi; fikrini so'z va gaplarni mantiqiy bog'lagan holda, to'g'ri va ravon bayon qila oladi; so'z va gaplarni bog'lagan holda fikrini aniq va ravon yozma bayon qila oladi; 140 — 160 so'zdan iborat diktantni yoza oladi, 20 — 25 gapdan iborat ijodiy matn (bayon, insho) yoza oladi, bayon (insho) ga reja tuza oladi, epigraf tanlay oladi; matnda badiiy tasvir vositalaridan o'rinali foydalana oladi; husnixat, tinish belgilari va imlo qoidalariga amal qila oladi; ish qog'ozlarini (ariza, ma'lumotnama, xat, tarjimai hol, ixcham hisobot, e'lonlarni) yoza oladi.

Lingvistik kompetentsiya: talaffuz va imloda tovush almashishi, tovush orttirilishi, tovush tushishi kabi hodisalardan o'rinali foydalana oladi; o'zlashtirilgan leksik birliklarni gap tarkibida qo'llay oladi; fonetik, leksik va grammatik tahlil qila oladi; fikrni mantiqiy izchillikda ifodalay oladi; matnda tilning ifoda vositalaridan foydalana oladi

-ommaviy axborot vositalaridagi dolzarb mavzularga doir xabar va ma'lumotlarni tushuna oladi;

-turli janrga oid matnlardagi so'z, ibora va atama (termin)larning ma'nosini tushunib, to'g'ri va ravon o'qiy oladi;

fikrini so'z va gaplarni mantiqiy bog'lagan holda, to'g'ri va ravon bayon qila oladi, tanish mavzuda taqdimot qila oladi;

-160 — 180 so'zdan iborat diktantni yoza oladi; o'qib eshittirilgan matn yoki mavzu asosida 26 — 30 gapdan iborat ijodiy matn (bayon, insho) yarata oladi;

-ish qog'ozlarini (ariza, ma'lumotnoma, xat, tarjimai hol, e'lidlarni) yoza oladi.

Ona tili darslarining samaradorligi o'qituvchining o'qitish metodlarini mukammal bilishi, metodni to'g'ri tanlay olishi va ularning o'z o'rnida qo'llay olishiga bog'liq. "Metod" yunoncha "tadqiqot" yoki "bilish yo'li" ma'nolarini ifodalaydi

Darsda o'quvchi faoliyati o'z-o'zidan faollahsmaydi. Ona tili ta'limining mazmuni muhim va yetakchi omil sanaladi. Chunki samaradorlik avvalo o'quvchilarga "Nimani o'qitish?" masalasi bilan bog'liq. Ona tili ta'limidan o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan zaruriy bilimlar hamda shu bilimlarga muvofiq keladigan malaka va ko'nikmalar tizimi to'g'ri belgilansagina "Qanday o'qitish kerak?" degan savolga javob topish mumkin.

O'qituvchi ta'lim metodini tanlashda quyidagilarga amal qilishi lozim.

Tanlayotgan metodning o'rganilayotgan til materiali mazmuniga muvofiq kelishi, mavzuning murakkablik darajasi, o'rganilayotgan o'quv materiali yuzasidan o'quvchilarda tushunchalarning mavjudligini hisobga olib tanlash.

Tanlanayotgan metod ona tili ta'limining asosiy maqsadi va o'rganilishi ko'zdautilgan mavzuning xususiy maqsadiga muvofiq kelishi shart.

Tanlanayotgan metod o'quvchilarning o'zlashtirishini, mustaqil ishslash darajasini, yosh va shaxsiy xususiyatlarini ham hisobga olishi lozim.

Ona tili darslarida qo'llaniladigan metod mavzulararo, bo'limlararo va fanlar aro bog'lanishlarni ham hisobga olish lozim.

Muammo: O'quv jarayonida o'quvchilarda kompetentsiyalarni shakllantirishda ta'lim texnologiyalarining ahamiyati nimadan iborat?

O'quv jarayonida ta'lim texnologiyalarining qo'llanilishi o'quvchilarni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas'uliyatni his etish, tahlil qilish, qo'shimcha vositalardan unumli foydalanishga, eng asosiysi o'qishga , fanga , o'zi tanlagan kasbiga nisbatan qiziqishini kuchaytiradi, ta'limda samarali natijalarga erishiladi.

Ta'lim texnologiyalari qo'llanilgan mashg'ulotlar o'quvchilar egallayotgan axborotlarni izlab topishga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zları keltirib chiqarishlariga qaratiladi.

Ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilarda tayanch va fanga oid kompetentsiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalar:


O‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda o‘qituvchining darsga jiddiy yondashishi zarur ekanligi O‘qituvchining o‘qish namunasiga ko‘ra o‘quvchilar to‘g‘ri, ifodali o‘qishni o‘rganadi. Darsda matnni o‘qib berish uchun o‘qituvchi puxta tayyorgarlik ko‘rishi, mazmunni chuqurroq anglashga intilishi, matnning ayrim o‘rinlari qanday o‘qilishi lozimligini belgilab olishi lozim. O‘qituvchi ayrim tovush, bo‘g‘in, so‘zlarni qanday o‘qish kerakligini izohlagach, o‘quvchilar matnni navbat bilan o‘qishadi. O‘qituvchi ularni kuzatib, to‘g‘rilab boradi” Binobarin, o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib quyidagi omillarni keltirish mumkin: o‘quv dasturida berilgan mavzular bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qilish; – o‘quvchilarning lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish; – mashq va topshiriqlarni bajartirish orqali nazariy bilimlarini mustahkamlash va nutqini o‘stirish; – ona tili darsligida berilgan matn va lug‘at ustida ishlash va turli boshqotirma usullaridan foydalanish o‘quvchi nutqini rivojlantirish hamdachuqur tahlil qilib xulosa orqali fikrini bayon qilishga o‘rgatadi.

### “BOSHQOTIRMA”



Sinfdagisi o‘quvchilar 2 guruhga bo‘linadi. Boshqotirma ular e’tiboriga havola etiladi. Uni birinchi bo‘lib yechgan guruh g‘olib sanaladi.

Harflarni sonlar tartibiga ko‘ra shunday o‘qish kerakki, natijada 3 ta so‘zdan iborat xalq maqoli kelib chiqadi.



<b>A</b>	<b>I</b>	<b>Ch</b>
<b>O</b>	<b>2</b>	<b>Q</b>
<b>L</b>	<b>3</b>	<b>V</b>
<b>I</b>	<b>4</b>	<b>N</b>


<b>I</b>	<b>5</b>	<b>-I</b>
<b>D</b>	<b>6</b>	<b>N</b>
<b>G</b>	<b>7</b>	<b>R</b>
<b>O</b>	<b>8</b>	<b>O'</b>
<b>L</b>	<b>9</b>	<b>K</b>

*Aqlning o`lchovi- idrok .*

Tuzmoqchi bo`lgan testingiz javobi bo`lgan so'zni oldin tanlaysiz .


Masalan -ISSIQ so'zi 2) Keyin ISSIQ so'ziga so'z birikmasi tuzasiz , ISSIQ CHOY - Keyin uni sinonimiga almashtirasiz masalan QAYNOQ CHOY -xuddi shunday birikmadan 3 ta topasiz ISSIQ HAVO -ni JAZIRAMA HAVO ga almashtirasiz ,shunday qilib 3 sini ham topasiz .KO'PROQ -SIFAT ,RAVISH ,OT so'z turkumini tanlasangiz qiyinroq va qiziqroq chiqadi .

Ajratib ko`rsatilgan har uchala so'z bilan ma'nodoshlik hosil qila oluvchi so'zni yozing



(kuchli)


Kuchli yem,kuchli shamol,kuchli o`quvchi



(yumshoq)

Yumshoq sim,yumshoq odam,yumshoq shavla.

Leksikologiya bo'yicha: Quyidagi rasmlar asosida iboralar ayting



Xulosa o`rnida shuni ta`kidlash joizki, inson tajribasining tarixan shakllangan mazmuni so`zli shaklda umumlashtirilgan, uni bayon etish va o`zlashtirish esa ushbu jarayonda nutqning ham ishtirok etishini nazarda tutadi. Nutq bolaga inson madaniyatining barcha yutuqlariga yo`l ochadi

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

D.R.Babayeva. Nutq o`sirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). - T.: “Barkamol fayz media”, 2018, - 432 b.

Aliyev A. O`quvchilarning ijodkorlik qobiliyati. – Toshkent: O`qituvchi, 1991. 40 bet.

Maltseva, K.V. O`quvchilarning og`zaki nutqini rivojlantirish. - Kiev, 1987 yil.

Guilford J.P. (1950) Creativity, American Psychologist, Volume 5, Issue 9, 444-454.

Ибрагимова Г.Н. Интерфаол ўқитиши методлари ва технологиялари асосида талабаларнинг креативлик қобилиятларини ривожлантириш. / Монография. – Т.: “Фан ва технологиялар”, 2016. – Б. 77.

Toshkent shahar

Mirobod tumani

110-IDUM o`zbek tili fani

o`qituvchisi Mukambar Oripova